


**Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishi**  
(2021- yil yanvar-fevral)


Dastlabki ma’lumotlar bo’yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2831,5 mlrd. so’mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo’lib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 117,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to’g’ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (63,8 %) ni tashkil etdi.



*B-Tog’kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat, D-Elektr, gaz, bug’ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig’ish va utilizatsiya qilish.*


**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha**  
sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o’sishining asosiy omili bo’lib, tog’kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida -188,1 %, elektr, gaz, bug’ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash -131,9 % suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig’ish va utilizatsiya qilishda -129,8 % hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning -109,6 % ga o’sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o’zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko’rsatkichdir.


**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da**



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 287,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,2 % ini tashkil etdi.


**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-fevral	2021- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Neft, ming t.	4,7	6,9	2,2
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	414,9	43,4	-371,5
Gaz kondensati, ming t.	47,7	25,8	-21,9
Chaqiq tosh, ming t.	13,1	16,8	3,7
Shagʻal, ming t.	10,0	8,0	-2,0
Tabiiy qumlar, ming t.	13,8	22,7	8,9

**Ishlab chiqaradigan sanoat**


2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1805,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 63,8 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



2019- yil	2020- yil	2021- yil
yanvar-fevral	yanvar-fevral	yanvar-fevral
41,3	70,6	63,8
100,0	100,0	100,0

**Metallurgiya sanoati***(2021- yil yanvar-fevral)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 111,3 % ga oshgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 179,9 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 3,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish***(2021- yil yanvar-fevral)*


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 71,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 18,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati**


*(2021- yil yanvar-fevral)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar- fevral oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 226,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati**

*(2021- yil yanvar-fevral)*





Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 119,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 15,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati***(2021- yil yanvar-fevral)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 77,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,3 % ni, fizik hajm indeksi 145,0 ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 746,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Kiyim ishlab chiqarish sanoati***(2021- yil yanvar-fevral)*


2020- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 105,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % fizik hajm indeksi 87,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 59,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish**

*(2021- yil yanvar-fevral)*

2020- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 22,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 127,2 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 19,8 % ni, fizik hajm indeksi 101,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 560,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish**


*(2021- yil yanvar-fevral)*

2020- yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 143,8 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,04 % ni, fizik hajm indeksi 76,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020-yilning yanvar oyida -0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali-19,8 % (22,9 %), o'rta-quyi texnologiyali -0,9 % (3,5 %) va quyi texnologiyali -43,0 % (44,1 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi -13,7 % (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,4 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi -19,8 % (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,5 %), to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi -26,3 % (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 145,0 %), kiyim ishlab chiqarishning ulushi -2,1 % (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,1 %) ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2021- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 390,0 ming litr aroq (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 106,3 % ga o'sgan), 24,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (107,6 %), 23,0 ming tonna og'irligi 0,94 dan kam bo'lmagan polietilen (100,9 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoatmahsulotlari	2020- yil yanvar-fevral	2021- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Og'irligi 0,94 dan kam bo'lmagan polietilen, ming t.	22,8	23,0	0,2
Asfaltli aralashmalar, ming t.	2,0	1,8	-,02
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	23,2	25,0	1,8
Paxta tolasi, ming t.	10,5	10,2	-0,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,3	0,7	-0,6
Kaliy xlorid, ming t.	32,4	32,1	-0,3
Plastmassa quvurlar, ming t.	0,9	0,6	-0,3
Ip kalava, ming t.	4,4	5,1	0,7


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**
*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 718,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (25,3 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 131,9 % ga o'sgani kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil Yanvar-fevral	2021- yil Yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	1669,5	2290,6	621,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	565,8	542,1	-23,7

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,  
Chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil Yanvar-fevral	2021- yil Yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	122,5	1947,7	1825,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	6280,1	7964,0	1683,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'sish sur'ati 126,8 % ni tashkil etdi.

**Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 544,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 19,2 % ni tashkil etdi.





Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,3 % (2020- yil yanvar-fevral oylarida 1,7 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 32,9 % ni, shuningdek Shahrizabz tumani 8,8 % ni, Yakkabog' tumani 8,3 % ni, Koson tumani 8,0 % ni, Shahrizabz shahri 6,9 % ni hamda Chiroqchi tumani 5,6 % ni tashkil etdi.

















Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Nishon tumanida (107,7 %), Qarshi shahri (106,3 %), Muborak tumanida (106,1 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
Chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
2021- yilning yanvar-fevral oylarida**

	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	544,0	100,0	102,6	<b>Qarshi sh.</b>	178,8	32,9	106,3
<b>Shahrisabz sh.</b>	37,3	6,9	99,1	<b>G'uzor</b>	15,1	2,8	95,2
<b>Dehqonobod</b>	9,5	1,7	101,3	<b>Qamashi</b>	26,7	4,9	102,1
<b>Qarshi</b>	22,0	4,0	103,5	<b>Koson</b>	43,6	8,0	89,0
<b>Kitob</b>	28,6	5,3	105,2	<b>Mirishkor</b>	13,1	2,4	100,9
<b>Muborak</b>	12,2	2,3	106,1	<b>Nishon</b>	16,5	3,0	107,7
<b>Kasbi</b>	16,6	3,0	101,7	<b>Chiroqchi</b>	30,6	5,6	103,9
<b>Shahrisabz</b>	48,0	8,8	100,9	<b>Yakkabog'</b>	45,4	8,3	101,7

















Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 30,0 % ni shuningdek Shahrisabz tumani 9,4 %, Koson tumani 8,6 % va Yakkabog' tumanida 7,2 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
Chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
2021- yilning yanvar-fevral oylarida**

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	200,8	100,0	98,4		60,2	30,0	104,3
<b>Qashqadaryo viloyati</b>				<b>Qarshi sh.</b>			
	12,1	6,0	103,8		6,0	3,0	91,8
<b>Shahrisabz sh.</b>				<b>G'uzor</b>			
	3,9	1,9	100,5		10,8	5,4	102,4
<b>Dehqonobod</b>				<b>Qamashi</b>			
	9,5	4,7	104,9		17,3	8,6	66,0
<b>Qarshi</b>				<b>Koson</b>			
	11,5	5,7	108,6		5,2	2,6	100,5
<b>Kitob</b>				<b>Mirishkor</b>			
	5,0	2,5	107,3		6,6	3,3	107,6
<b>Muborak</b>				<b>Nishon</b>			
	6,9	3,4	100,9		12,4	6,2	104,2
<b>Kasbi</b>				<b>Chiroqchi</b>			
	18,8	9,4	101,0		14,5	7,2	100,0
<b>Shahrisabz</b>				<b>Yakkabog'</b>			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 34,6 % ni, shuningdek Yakkabog' tumani 9,0 % ni, Shahrisabz tumani 8,5 ni tashkil etib, o'sish sur'atida esa eng yuqori ko'rsatkich Koson tumanida (115,7 %), Yakkabog' tumanida (112,4 %) hamda Qarshi shahrida (107,3 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
Chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
2021-yilning yanvar-fevral oylarida**



	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	<b>343,3</b>	<b>100,0</b>	<b>105,0</b>		<b>118,6</b>	<b>34,6</b>	<b>107,3</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>				<b>Qarshi sh.</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	<b>25,2</b>	<b>7,3</b>	<b>101,3</b>		<b>9,1</b>	<b>2,6</b>	<b>97,7</b>
<b>Shahrisabz sh.</b>				<b>G'uzor</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	<b>5,6</b>	<b>1,6</b>	<b>102,0</b>		<b>16,0</b>	<b>4,7</b>	<b>101,8</b>
<b>Dehqonobod</b>				<b>Qamashi</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	<b>12,5</b>	<b>3,6</b>	<b>102,4</b>		<b>26,3</b>	<b>7,6</b>	<b>115,7</b>
<b>Qarshi</b>				<b>Koson</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	<b>17,1</b>	<b>5,0</b>	<b>103,1</b>		<b>7,9</b>	<b>2,3</b>	<b>101,1</b>
<b>Kitob</b>				<b>Mirishkor</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	<b>7,2</b>	<b>2,1</b>	<b>105,3</b>		<b>9,8</b>	<b>2,9</b>	<b>107,8</b>
<b>Muborak</b>				<b>Nishon</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	<b>9,7</b>	<b>2,8</b>	<b>102,3</b>		<b>18,2</b>	<b>5,3</b>	<b>103,7</b>
<b>Kasbi</b>				<b>Chiroqchi</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	<b>29,2</b>	<b>8,5</b>	<b>100,9</b>		<b>30,9</b>	<b>9,0</b>	<b>112,4</b>
<b>Shahrisabz</b>				<b>Yakkabog'</b>			

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
Tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish  
2021- yilning yanvar-fevral oylarida**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 479,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 17,6 % ni tashkil etdi.

**Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari  
2021- yilning yanvar-fevral oylarida**

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	2831,5	100,0	117,8	<b>Qarshi sh.</b>	434,9	15,4	119,6
<b>Shahrisabz sh.</b>	38,0	1,3	104,8	<b>G'uzor</b>	522,4	18,5	107,4
<b>Dehqonobod</b>	83,6	3,0	98,3	<b>Qamashi</b>	59,8	2,1	89,1
<b>Qarshi</b>	163,2	5,8	116,4	<b>Koson</b>	95,2	3,4	71,1
<b>Kitob</b>	38,1	1,3	101,3	<b>Mirishkor</b>	61,3	2,2	108,6
<b>Muborak</b>	98,1	3,5	81,0	<b>Nishon</b>	762,4	26,9	157,6
<b>Kasbi</b>	224,6	7,9	171,7	<b>Chiroqchi</b>	86,4	3,0	115,4
<b>Shahrisabz</b>	53,4	1,9	100,4	<b>Yakkabog'</b>	110,3	3,9	157,6

**Qashqadaryo viloyati jami sanoat**
**Mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon tumani (Viloya tsanoat ishlab chiqarish hajmining 26,9 %) hamda G'uzor tumani (18,5 %), Qarshi shahri (15,4 %) va Kasbi (7,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Shahrisabz shahri va Kitob tumaniga (1,3 %) to'g'ri kelmoqda.



**Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishi Nishon tumani (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 107,7 %), Qarshi shahri (106,3 %) va Muborak tumanida (106,1 %) iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganini kuzatishimiz mumkin.

**Sanoat ishlab chiqarish  
Fizik hajmi indeksi, % da**
**Iste'mol mahsulotlari  
Ishlab chiqarishda o'sish  
sur'ati, % da**


Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kasbi (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 171,7 %), Yakkabog' (157,6 %), Nishon (157,6 %), Qarshi shahri (119,6 %) hamda Qarshi tumanlarida (116,4 %) sezilarli darajada oshdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (4 953,7 ming so'm), G'uzor (2 542,3 ming so'm), Qarshi shahrida (1 570,5 ming so'm) hamda Kasbi tumanlarida (1 135,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (856,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
*2021- yilning yanvar-fevral oylarida, ming so'm*

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
		856,1		164,5	
	<b>Qashqadaryo viloyati</b>			<b>Qarshi sh.</b>	

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
		271,9		266,5	
	<b>Shahrisabz sh.</b>			<b>G'uzor</b>	

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
		563,4		63,8	
	<b>Dehqonobod</b>			<b>Qamashi</b>	

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
		653,0		88,2	
	<b>Qarshi</b>			<b>Koson</b>	

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
		143,7		107,8	
	<b>Kitob</b>			<b>Mirishkor</b>	

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
		1 122,3		104,1	
	<b>Muborak</b>			<b>Nishon</b>	

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
		1 135,6		84,1	
	<b>Kasbi</b>			<b>Chiroqchi</b>	


	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
		239,6		215,5	
	<b>Shahrisabz</b>			<b>Yakkabog'</b>	

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 164,5 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida -645,6 ming so'mni, Shahrisabz shahrida -266,5 ming so'mni, Shahrisabz tumanida 215,5 ming so'mni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 738,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,1 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mirishkor (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 99,9 %), Kitob (95,4 %), Yakkabogʻ (87,6 %), Shahrisabz (78,2 %), Shahrisabz sh. (76,7 %) hamda Koson (76,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Nishon (2,2 %), Gʻuzor (2,9 %) va Kasbi (7,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4270 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 826 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 19,3 % i) Qarshi shahriga, 491 tasi Kitob tumaniga (11,5 %), 372 tasi Yakkabog' tumaniga (8,7 %), 354 tasi Shahrisabz shahri (8,3 %), 341 tasi Chiroqchi (8,0 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 266 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 44 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 16,5 %), Qarshi shahrida, 32 tasi (12,0 %), Kasbi tumanida, 29 tasi (11,0 %), G'uzor tumanida, 23 tasi (8,6 %), Qarshi tumanida tashkil etildi.

**Sanoat Statistikasi  
Bo'limi**  
Tel: (75) 221-32-36